

O‘ZBEK MUSIQASI RIVOJIDA SURXON OHANGLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI, O‘RNI VA AHAMIYATI

<https://doi.org/10.70728/orien.v07.i02.035>

Aliyev Ma’ruf Melikmurod o‘g‘li
alizoooooda@gmail.com

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada o‘zbek milliy musiqasi tizimida Surxondaryo vohasiga xos musiqiy ohanglarning shakllanish manbalari, lad-intonatsion, ritmik va ijrochilik xususiyatlari hamda ularning umumiy milliy musiqiy tafakkur rivojiga ta’siri tahlil qilinadi. Surxon ohanglarining xalq musiqasi va baxshichilik an’analari bilan uzviy bog‘liqligi, shuningdek, professional musiqa san’atiga kirib kelish jarayonlari, estrada san’atidagi kuy qo‘shiqlarda tutayotgan o‘rni, ko‘plab san’atkor qo‘shiqchilar ijodida o‘rin olayotgani ilmiy asosda yoritiladi. Surxon vohasiga xos til va sheva muayyan jarayon va kuylar, so‘zlardagi talaffuz, lad-intonatsion xususiyatlar asosida yaratilingan misollar bilan ko‘rsatilingan.

Kalit so‘zlar: o‘zbek milliy musiqasi, Surxon ohanglari, xalq musiqasi, baxshichilik, lad-intonatsiya, ritm, ijrochilik uslubi, ma’naviy qadriyatlar, epik ruh, dramatik, marosim, yalla, to‘y, marosim, doston, ijtimoiy munosabatlar, musiqa rivoji, qadimiy musiqa qatlamlari, madaniy meros

DISTINCTIVE FEATURES, ROLE, AND SIGNIFICANCE OF SURKHAN MELODIES IN THE DEVELOPMENT OF UZBEK MUSIC

Aliev Maruf Melikmurod ogli
alizoooooda@gmail.com

Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

Abstract: This scientific article analyzes the sources behind the formation of musical melodies characteristic of the Surkhandarya oasis within the system of Uzbek national music, including their modal-intonational, rhythmic, and performance features, as well as their influence on the development of overall national musical thinking. The study scientifically examines the close connection of Surkhan melodies with folk music and baxshi performance traditions, as well as the processes through which they have entered professional musical art, their role in pop music songs, and their presence in the creative work of numerous singers and performers. It also demonstrates the language and dialect specific to the Surkhandarya oasis through

examples based on particular musical processes and melodies, pronunciation in lyrics, and modal-intonational characteristics.

Keywords: Uzbek national music, Surkhan melodies, folk music, baxshi tradition, modal-intonational structure, rhythm, performance style, spiritual values, epic spirit, dramatic character, ritual, yalla, wedding ceremonies, ceremonial practices, epic (doston), social relations, musical development, ancient musical layers, cultural heritage

Kirish

O'zbek milliy musiqasi ko'p asrlik tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllangan bo'lib, u turli hududiy musiqiy maktablar (baxshichilik, filklor), mahalliy ijrochilik uslublari va xalq og'zaki ijodi asosida boyib borgan[6. 2018.B.12]. Har bir hudud musiqasi o'sha vohaning tabiiy sharoiti, turmush tarzi, tarixiy tajribasi va ma'naviy qadriyatlarini o'zida mujassam etadi. Shu jihatdan Surxondaryo vohasi musiqiy merosi o'zbek musiqa madaniyatida alohida o'rin tutadi[10. 2023.B.307].

Surxon ohanglari o'zining qadimiyligi, epik ruhga boyligi, jo'shqin va dramatik ifodasi bilan ajralib turadi. Ushbu ohanglar asosan xalq qo'shiqlari, marosim kuylari, lapar va yalla namunalari hamda baxshilar ijodi orqali avloddan-avlodga yetib kelgan.

Surxon vohasi musiqiy madaniyatining tarixiy asoslariga nazar tashlasak, Surxondaryo vohasi Markaziy Osiyodagi eng qadimiy madaniy hududlardan biri hisoblanadi. Arxeologik va etnografik tadqiqotlar bu hududda qadimgi musiqiy an'analar shakllanganini tasdiqlaydi. Vohaning geografik joylashuvi - Afg'oniston, Tojikiston va boshqa hududlar bilan tutashligi - musiqiy madaniyatda o'zaro ta'sir va uyg'unlikni vujudga keltirgan.

Hudud aholisi hayotida chorvachilik, dehqonchilik va harbiy-epik an'analar muhim o'rin egallagan. Bu holat Surxon musiqasida epiklik, keng melodik rivoj va kuchli dramatik ohanglarning shakllanishiga sabab bo'lgan[8. 2015.B.52].

Surxon ohanglarining janr tizimida quyidagi janrlar yetakchi hisoblanadi:

- a) xalq qo'shiqlari (mehnat, lirika va marosim qo'shiqlari);
- b) lapar va yallalar;
- c) to'y va marosim kuylari;
- d) baxshilar ijrosidagi doston kuy-ohanglari;
- e) Cholg'u musiqalari.

Mazkur janrlar xalqning kundalik hayoti, ijtimoiy munosabatlari va ma'naviy ehtiyojlari bilan chambarchas bog'liq holda rivojlangan.

Lad-intonatsion va ritmik xususiyatlar

Surxon ohanglarining lad asoslari asosan xalq ladlariga tayangan bo'lib, ularda pentatonik tuzilmalar, shuningdek, miksolidiy va doriy lad elementlari uchraydi.

Melodik harakat ko‘pincha bosqichma-bosqich rivojlanib, katta intervallar dramatik nuqtalarda qo‘llaniladi[6. 2018.B.89].

Ritmik tuzilma erkin va nutqiy xarakterga ega bo‘lib, baxshichilik ijrosida so‘z va kuy uyg‘unligi ustuvor hisoblanadi. Ba’zi raqsbop kuylarda esa o‘lchovli, jo‘shqin ritmlar ustunlik qiladi[8. 2015.B.73].

Ijrochilik uslubi va cholg‘u vositalari

Surxon musiqasining ijrochilik uslubi tabiiy ovoz chiqarish, baxshilarning o‘ziga xos tembr va diapazonlarda kuylashi surxoncha intonatsiyani yaqqol ko‘rsatib beradi. Bunga qo‘shimcha qilib Surxon ijrochilik uslublari kuchli emotsional ifoda va improvizatsiyaga moyilligi bilan ajralib turadi. Ijrochilar kuy mazmunini to‘liq ochib berishga intiladi.

Asosiy cholg‘u asboblari:

- do‘mbira - baxshichilik san’atining yetakchi cholg‘usi;
- metar, sibizg‘a, changqobuz - cholg‘ulari faqat Surxon vohasiga xos bo‘lib kuylari ohangdorligi va tembri bilan ajralib turadi;
- doira - ritmik asosni ta’minlaydi.

Mazkur cholg‘ular tembr jihatidan xalq ruhiyatiga mos kelib, Surxon ohanglarining badiiy ta’sir kuchini oshiradi.

Bulardan tashqari ozchilikga ma’lum bo‘lgan shupillak, g‘ajir nay, qizil o‘ngach nay kabi Surxon vohasiga mansub asboblari mavjud. Ushbu asboblari hozirda juda kam insonlarda mavjud va ma’lum bo‘lsada, aslida ushbu asboblari Surxon vohasining chin ma’nodagi tarixiy va madaniy merosi hisoblanadi.

Baxshichilik an’analari va ularning musiqiy ahamiyati

So‘zimizni “baxshichilik” san’atining YuNESCONing nomoddiy ma’navi meroslar ro‘yxatidan joy olgani bilan boshlar o‘rinli. Surxon baxshichilik maktabi o‘zbek milliy musiqasining markazlaridan biriga aylanib bo‘ldi.

Baxshilarning o‘ziga xos tembrda, ijro usullarida, improvizatsion ko‘rinishdagi ijrolari va kuy ohanglari bilan ajralib turadi. Turli xildagi kuy qo‘shiq, dostonlarning ijro etilishi keng qamrovli so‘z boyliglari ko‘zga ko‘rinadigan jihatlardandir.

Baxshi dostonlar orqali xalqning tarixiy xotirasi, qahramonlik g‘oyalari, vatanparvarlik va axloqiy qadriyatlarini ifodalaydi. Surxon ohanglari bu jarayonda milliy musiqiy tafakkurni shakllantiruvchi vositalardan bo‘lib xizmat qiladishi mumkinligini ta’kidlab o‘tish joiz[8. 2015.B.73].

Surxon ohanglarining professional musiqa rivojiga ta’siri

XX asrda o‘zbek professional musiqasi shakllanish jarayonida xalq ohanglariga, jumladan, Surxon musiqiy merosiga murojaat kuchaydi. Ko‘plab kompozitorlar Surxoncha ohanglarining lad-intonatsion xususiyatlarini simfonik, vokal va sahna asarlarida qayta ishlagan[6. 2018.B.156-172].

Bunga misol qilib aytgan holda Sh.Pardayening "Afandizoda", X.Xursandovning "Kampir topaymi dadajon" musiqali drammlarida ham Surxoncha ohanglardan unimli foydalanilganligini ko'rishimiz mumkin. Bunga qo'shimcha qilib "Sug'diyona" - O'zbekiston davlat filarmoniyasi qoshidagi milliy cholg'ular kamer orkestri repertuarlarida, kompozitorlarimizdan xor uchun qayta ishlab moslashtirilgan. Surxocha ohanglarni xor jamoalar repertuarlarida ham o'rin olayotganligini ta'kidlash o'rinli.

Bu jarayon milliy musiqa uslubining boyishiga, xalq va professional san'at o'rtasidagi uzviy aloqaning mustahkamlanishiga olib kelishi turgan gap.

Estrada musiqa san'atida Surxon ohanglarining o'rni

Ta'kidlash joizki hozirgi estrada musiqa san'atida Surxon ohanglari o'zini tobora namoyon etib kelmoqda. Jumladan yurtimizning atoqli estrada xonandalaridan O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Ravshan Nomozov, O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq artisti Mahmud Nomozov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Hosila Rahimova, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Alisher Fayz, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Lola Axmedova, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Abdurashid Yo'ldoshev, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Sayyora Qoziyeva, xonandalar Bunyodbek Saidov, Baxriddin Zuxritdinov, Zokir Olimov va boshqa shu kabi estradamizning yorqin vakillari tomonidan qilinayotgan ijodlarida bevosita surxoncha intonasiya, usul, ohanglarni ko'rishimiz mumkin.

Boysun folklor-etnografik ijodining Surxon musiqasidagi o'rni

Boysun xalqlarining musiqiy ijodi asrlar davomida turli ijtimoiy-maishiy sharoitlar hamda jamiyatning ijtimoiy-psixologik xususiyatlariga bog'liq holda shakllangan. U o'zbek va tojik xalqlarining musiqiy madaniyati unsurlarini o'zida mujassam etib, insonning oilaviy hayoti bilan bog'liq jarayonlarni, shuningdek, uning xo'jalik faoliyati, e'tiqodlari va tabiat hodisalari bilan aloqador turli vazifalarni aks ettirgan[3. 2006.B.5].

Boysun xalqlarining milliy musiqiy ijodi Surxondaryo vohasidagi kozga ko'ringan ijod namunalaridandir. Ko'p yillar davomida shakllanib kelgan ijro usullari, folklor qo'shiqlar, milliy madaniyat va raqs ko'rinishlari bunga yaqqol misol bo'ladi.

"Boysun bahori" festivali - ushbu festivalning ko'p yillar davomida o'tkazib kelinayotgani ko'pchilikka ma'lum. Ushbu festivalning o'tkazilishi minglab insonlarni shu jumladan xorijiy sayyohlarni o'ziga jalb etib kelmoqda. Bu jihat boysunni Surxon vohasidagi mavqeyini yaqqol namoyon etadi[4. 2006.B.11].

Surxoncha uslub va sheva

Markaziy Osiyo xalqlarining musiqiy folklori hamda og'zaki-professional ijod namunalarini o'z ichiga olgan an'anaviy musiqa nafaqat mavzularning xilma-xilligi, ifoda imkoniyatlarining nihoyatda boy palitrasi va ijrochilik usullarining rang-

barangligi bilan, balki o'ziga xos mintaqaviy va mahalliy uslublarning mavjudligi bilan ham ajralib turadi.

Musiqiy til uchun analogiyalarning mazmunan anglanganligi nihoyatda muhimdir - u bitta melodik formuladan arxaik tarzda foydalanish bo'ladimi yoki intonatsion-ritmik formulalar-napevlar tizimiga asoslangan yanada rivojlangan an'ana bo'ladimi, bundan qat'i nazar.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, marosim folklori va uning musiqiy tili juda qadimiy bo'lib, umuman an'anaviy folklorning asosida yotsa-da, u hech qachon "ibtidoiylik"ni ifodalamaydi, balki uzoq va murakkab tarixiy taraqqiyot yo'li natijasida shakllangan[1. 2006.B.7-8].

Surxon vohasi o'ziga xos musiqiy tili-shevasi bilan ajralib turadi. Ularning musiqiy tili aniq maishiy ehtiyoj munosabati bilan maxsus hissiy sharoit sodir bo'lgandagina kuylanadi, vohadagi musiqiy tilining o'ziga xosligi "an'ana (ijro) shakl-matn" semantik qonuniyati orqali ifodalanadi. Uning xarakterli shakllari quyidagicha:

1. Ohang ritmli takrorlanuvchan bir tovushdan iborat. Surxon musiqiy shevasida bu chaqiriq ohangi deb nom olgan, u jarchilar qo'shig'iga mansub va Surxondaryoda keng tarqalgan.

2. Ohang kichik diapazonli asosiy tovushning ohangdorligi orqali gavdalangan.

3. Yomg'ir chaqiriq marosimi ohangi faqatgina Surxon vohasiga xos va aynan voha musiqiy tilini hosil qiladi.

4. Mavsumiy mehnat marosim qo'shiqlari sekunda oralig'idagi ohangdan tuzilgan.

5. Sakrama uslubdagi musiqiy til - yuqoriga kvarta yoki kvinta sakrama orqali boshlang'ich harakat balandlikdan pastga to'ldirilib boriladi

6. «Yor-yor» musiqiy tili umumuzbek tiliga xos - ravon yuqoridan pastga harakatlangan va umuman «Yor-yor» qo'shiqlariga o'xshash, ammo shevasi o'ziga xoslik bilan ajralib turadi (Hay yor, Yor-yor, yorone).

7. Surxon vohasida keng tarqalgan va ommabop qo'shiqqa aylangan ohang «Aylansin yor, aylansin» (yoki «Yaqu-yaqu, yaq») - jozibali, o'ynoqi xarakteri [7. 2024.B.129-139].

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Surxon ohanglari o'zbek milliy musiqasi rivojida muhim o'rin tutadi. Ular xalq musiqasining qadimiy qatlamlarini saqlab qolgan holda, professional musiqa san'ati uchun ham boy manba bo'lib xizmat qilmoqda. Surxon musiqiy merosini chuqur o'rganish va targ'ib etish milliy madaniyat taraqqiyoti nuqtayi nazaridan muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Xalq qo'shiqlarini keng ommalashtirish milliy o'zlikni anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, Surxondaryo viloyati xalq qo'shiqlari lokal musiqiy uslubi va shevasini tadqiq etish ayni zamondagi muhim vazifalardandir.

Foydalanilgan adabiyotlar

Абдуллаев Р, Обряд и музыка в контексте культуры Узбекистана и Центральной Азии. Швейцарского агентства по развитию и сотрудничеству. - Ташкент, 2006. - 336 стр.

Abdullayev R, O'zbek mumtoz musiqasi. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: Yangi nashr, 2008. - 112 bet.

Abdullaev R, Boysun traditional musical culture. UNESCO office in Toshkent. - Tashkent.: «Print-S», 2006. - 120 page.

Абдуллаев Р, Байсун традиционная музыкальная культура. Представительство ЮНЕСКО в Узбекистане. - Ташкент, 2006. - 124 стр.

Abdurauf Fitrat. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. Asror Samad:. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi «Fan» nashriyoti, 1993-yil, - 55 bet.

A.Jabborov, S.Begmatov, M.Azamova. O'zbek musiqasi tarixi. -T.: «Fan va texnologiya», 2018, 204 bet.

Naimov M. O'zbek marosim qo'shiqlari (XX asr janubiy O'zbekiston (Surxon) vohasi misolida). - Farg'ona.: «Classic», 2024 - 167 bet.

O'zbekistonda baxshichilik san'atining shakllanishi va taraqqiyoti tarixi. S. Tursunov va boshq. Toshkent: "Tafakkur" nashriyoti, 2015 y. 304 b.

Yuldashev, A., & Mahmudova, A. (2023). The Formation of Categories in the Art of Uzbek Folk Music Performance. INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION. 2(1). 28-31.

Xudiyberdiyeva M. (2023). O'ZBEK MUSIQASIDA MAHALLIY MUSIQIY USLUBLAR. Oriental Art and Culture, 4(6). 306-310